




## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-may)

B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqaradigan sanoat



D - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5719,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 83,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,4 % ni tashkil etdi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 34,0 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 3,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,0 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida- 45,4 % ga pasayish kuzatildi.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoat

2020 - yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5398,5 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,4 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da






## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining hajmi 50,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 1076,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 18,8 %), o'rta-quyi texnologiyali 672,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 11,8 %), quyi texnologiyali 3599,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 62,9 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 95,0 ming tonna chaqiq tosh (2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 32,7 foizga o'sgan), 33,1 ming tonna po'latdan quvurlar (57,9 foiz), 134,2 ming tonna asfalt (32,6 foiz), 6565,0 tonna yigirilgan ip (2,9 martaga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Shag'al, ming t.	71,5	94,9	23,4
<b>Po'latdan quvurlar ming t.</b>	<b>21,0</b>	<b>33,1</b>	<b>12,1</b>
Tamaki (segaret), mln.dona	4209,0	3627,0	-582
<b>Asfalt, ming t.</b>	<b>101,2</b>	<b>134,2</b>	<b>33,0</b>
Yigirilgan ip, t	3136,6	6565,0	3428,4

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Xo'jalik sovuni, t	2804	1659	-1145
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	27,36	9,77	-17,59
Paxta tolasi, ming t.	14,6	19,72	5,12
O'simlik yog'i, t	13457,9	12987,8	-470,1

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)**



Tarkibida ikkita ta'minlovchi element—azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar

**1,95**  
*ming tonna*



Aroq

**52,9**  
*ming l. 100% spirit*



Xo'jalik sovuni


**1659,0**  
*tonna*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi

**726,8**  
ming l.Pivo (pivo ishlab  
chiqarish  
chiqindilardan  
tashqari)**8273,0**  
ming l.Yumshoq bug'doy va  
spelta uni**75,4**  
ming tonna.Birinchi navli undan  
tayyorlangan bug'doy  
noni (buxanka), og'irligi  
600 g.**272,7**  
tonnaTozalangan paxta yog'i  
va uning fraksiyalari  
(kimyoviy modifikatsiya  
qilinganlaridan tashqari)**6280,0**  
tonna


Paxta tolasi

**19,72**  
ming tonna

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta chigit



Paxta tiviti (lint)



Yigirilgan ip

**34,07**  
ming tonna

**1266,5**  
tonna

**6565,0**  
tonna



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

**23,0**  
млн кВтч




Bug‘ va issiqliq suv  
(issiqlik energiyasi)

**33,9**  
ming Gkal.




Portlandsement

**30490,22**  
tonna



Po'latdan quvurlar

**33,1**  
ming tonna

Asfalt

**134,2**  
ming tonna

Shag'al


**94,9**  
ming tonna

Tamaki (sigaret)

**3627,0**  
mln donaYirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqaMineral va kimyoviy  
o'g'itlar chiqarish**9,77**  
ming tonna

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 241,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 % ini tashkil etdi).

2020-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 34,0 % ga oshganligi kuzatildi.

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi).


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



2020-yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,0 % ga pasayganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3277,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga pasayganligi va jami sanoatdagi ulushi 57,3 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-may oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,8 % dan 61,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,7 % (2019-yil yanvar-may oylarida 4,4 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 47,7 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 12,0 % ni, Urgut tumani 10,3 % ni, Jomboy tumani 5,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (88,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (92,5 %), Payariq (91,7 %), Bulung'ur (89,8 %), Nurobod (88,8 %), Samarqand (88,9 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-may oylarida)**

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3277,9</b>	<b>100,0</b>	<b>88,0</b>
<b>Samarqand sh.</b>	<b>1563,4</b>	<b>47,8</b>	<b>87,9</b>
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>	<b>59,6</b>	<b>1,8</b>	<b>87,5</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Samarqand</b>	<b>394,4</b>	<b>12,0</b>	<b>88,9</b>
<b>Ishtixon</b>	<b>49,8</b>	<b>1,5</b>	<b>87,7</b>
<b>Pastdarg'om</b>	<b>125,0</b>	<b>3,8</b>	<b>87,4</b>
<b>Payariq</b>	<b>32,7</b>	<b>1,0</b>	<b>91,7</b>
<b>Urgut</b>	<b>337,1</b>	<b>10,3</b>	<b>88,0</b>
<b>Tayloq</b>	<b>153,4</b>	<b>4,7</b>	<b>86,4</b>
<b>Oqdaryo</b>	<b>59,8</b>	<b>1,8</b>	<b>87,1</b>
<b>Jomboy</b>	<b>163,8</b>	<b>5,0</b>	<b>87,9</b>
<b>Narpay</b>	<b>83,8</b>	<b>2,6</b>	<b>87,2</b>
<b>Bulung'ur</b>	<b>108,6</b>	<b>3,3</b>	<b>89,8</b>
<b>Kattaqo'rg'on</b>	<b>76,1</b>	<b>2,3</b>	<b>88,3</b>
<b>Nurobod</b>	<b>11,3</b>	<b>0,3</b>	<b>88,8</b>
<b>Paxtachi</b>	<b>50,8</b>	<b>1,5</b>	<b>88,0</b>
<b>Qo'shrabot</b>	<b>8,4</b>	<b>0,3</b>	<b>92,5</b>

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2177,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 38,1 % ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020-yil yanvar-may mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>5719,4</b>	<b>83,4</b>
<b>Samarqand sh.</b>	2664,7	88,7
<b>Kattaqoʼrgʼon sh.</b>	128,1	100,3
<i>tumanlar:</i>		
<b>Samarqand</b>	333,4	56,3
<b>Ishtixon</b>	159,2	145,3
<b>Pastdargʼom</b>	205,4	104,3
<b>Payariq</b>	100,3	104,8
<b>Urgut</b>	443,9	80,7
<b>Tayloq</b>	205,1	101,3
<b>Oqdaryo</b>	105,0	79,4
<b>Jomboy</b>	722,5	67,9
<b>Narpay</b>	236,2	117,7

	<b>2020-yil yanvar-may mldr. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Bulung'ur</b>	78,4	62,9
<b>Kattaqo'rg'on</b>	157,7	92,6
<b>Nurobod</b>	61,5	94,9
<b>Paxtachi</b>	105,5	103,4
<b>Qo'shrabot</b>	12,4	90,1




### **Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 46,6 %), Jomboy (12,6 %), Urgut (7,8 %), Samarqand (5,8 %), hamda Narpay (4,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,2 %), Nurobod (1,1 %) hamda Bulung'ur (1,4%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi  
(2020-yil yanvar-may oylarida)**

	Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi %
<b>Samarqand viloyati</b>	2528,5	44,2
<b>Samarqand sh.</b>	827,6	31,1
<b>Kattaqo‘rg’on sh.</b>	36,6	28,6
<i>tumanlar:</i>		
<b>Samarqand</b>	306,9	92,1
<b>Ishtixon</b>	34,8	21,9
<b>Pastdarg’om</b>	116,8	56,9
<b>Payariq</b>	98,3	98,0
<b>Urgut</b>	410,5	92,5
<b>Tayloq</b>	67,4	32,9
<b>Oqdaryo</b>	68,8	65,5
<b>Jomboy</b>	179,8	24,9
<b>Narpay</b>	23,6	10,0
<b>Bulung’ur</b>	68,3	87,1
<b>Kattaqo‘rg’on</b>	132,2	83,8
<b>Nurobod</b>	59,2	96,4
<b>Paxtachi</b>	86,3	81,8
<b>Qo’shrabot</b>	11,3	91,2



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2237,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qo'shrabot, Oqdaryo, Nurobod, hamda Bulung'ur (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtachi (99,0 %), Urgut (80,8 %), Samarqand(78,7 %), Pastdarg'om (71,6 %), Payariq (43,7%) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes sub'yektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Kattaqo'rg'on shahri (22,3 %), Samarqand shahri (24,2 %), Ishtixon (20,3 %), Narpay (9,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini  
(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 6081 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1431 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 23,5 %) Samarqand shahriga, 885 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 549 tasi (9,0 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-may oyida viloyatda 598 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 66 tadan (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 11,0 %) Samarqand shahri va Urgut tumanida, 60 tasi (10,0 %) Pastdarg'om tumanida, 54 tasi (9,0 %) Samarqand tumanida tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel: (66) 235-06-80